

**Termiz davlat universiteti “Transport tizimlari va inshootlari” kafedresi, DSc, dotsent, Qo’ziyev Abdimurot O’roqovich taqrizi ostida**

**Primkulov Bekzod Sheraliyevich Dotsent, (PhD), Termiz muhandislik-texnologiya instituti  
Telefon raqami: +998 90 939 87 00  
e-mail: bekozod8788@mail.ru  
Qurbonazarov Shavkat Abduraximovich Assistent, Termiz muhandislik-texnologiya instituti  
e-mail: qurbonazarov@tiet.uz  
Choriyev Bekzod Urazovich Magistrant, Termiz muhandislik-texnologiya instituti  
e-mail: bekozodchoriyev23@gmail.com**

---

### **TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO‘LGAN JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING QAMROV KENGLIGINI OSHIRISH**

**ANNOTATSIYA:** Maqolada so‘nggi yillarda shahar infratuzilmasining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan jamoat transporti xizmatini yanada takomillashtirish yuzasidan islohatlarda keltirilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, ushbu sohani rivojlantirish, yo‘lovchilarni jamoat transportiga bo‘lgan ishonchini oshirish hamda xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bunga ko‘ra, Termiz shahrida amalda mavjud bo‘lgan avtobus yo‘nalishlari tahlil qilinib, qamrov kengligini yanada oshirish bo‘yicha bir qancha taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan. Bundan tashqari, jamoat transporti harakat xavfsizligini ta‘minlashning ustuvor yo‘llari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jamoat transporti, yo‘nalish, yo‘lovchi, qamrov kengligi, avtobus.

---

### **РАСШИРЕНИЕ ПОКРЫТИЯ ДОСТУПНЫХ МАРШРУТОВ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В ГОРОДЕ ТЕРМИЗЕ**

**АННОТАЦИЯ:** В статье за последние годы проведена практическая работа по реализации поставленных в реформе задач по дальнейшему совершенствованию общественного транспорта, который считается одной из основных отраслей инфраструктуры города. В частности, развитие этого сектора, повышение доверия пассажиров к общественному транспорту и расширение спектра предоставляемых услуг являются одними из актуальных вопросов современности. Соответственно, были проанализированы существующие автобусные маршруты в городе Термез и дан ряд предложений и рекомендаций по дальнейшему увеличению покрытия. Кроме того, представлена информация о приоритетных путях обеспечения безопасности движения общественного транспорта.

**Ключевые слова:** Общественный транспорт, маршрут, пассажир, ширина покрытия, автобус.

---

### **INCREASING THE COVERAGE OF AVAILABLE PUBLIC TRANSPORT ROUTES IN THE CITY OF TERMIZ**

**ANNOTATION:** In the article, in recent years, practical work has been carried out on the implementation of the tasks specified in the reforms regarding the further improvement of the public transport service, which is considered one of the main branches of the city's infrastructure. In particular, the development of this sector, increasing the confidence of passengers in public transport and expanding the scope of services are one of the urgent issues of today. Accordingly, the existing bus routes in the city of Termiz were analyzed and a number of suggestions and recommendations were made to further increase the coverage. In addition, information on priority ways to ensure public transport traffic safety is provided.

**Key words:** Public transport, route, passenger, coverage, bus.

---

**KIRISH** Jamoat transporti tizimi bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib kelayotgan sohalardan biri sanaladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ushbu sohada keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, aholiga yuqori sifatli va qulay keng qamrovli jamoat transporti xizmatini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida 2023-yil 16-fevraldagi PQ-59-sonli qarori qabul qilingan[1].

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq shaharlarda avtobus yo'nalishlarining yangi tarmog'i joriy etilishi, avtomatlashtirilgan to'lov tizimi va avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatining bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi borasida bir qator ko'rsatmalar berib o'tilgan. Xususan, mazkur qaror ijrosini taminlash yuzasidan shahar va viloyat markazlarida jadallik bilan ishlar olib borilmoqda. Bunga ko'ra, 2024-yilning 1-iyuniga qadar Nukus shahri va boshqa viloyat markazlarida qaror ijrosi ta'minlanishi belgilab qo'yilgan[2].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI** Bugungi kun ta'biri bilan aytganda, jamoat transporti aholi kundalik hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Shuning uchun ushbu sohani rivojlantirish har tomonlama iqtisodiy o'zini oqlaydi. Birinchi navbatda yo'lovchilarning jamoat transportiga bo'lgan ishonchlari ortadi. Ikkinchidan jamoat transporti harakat xavfsizligini ta'minlash orqali yo'llarda yuzaga keladigan tirbandliklarni qisman bartaraf etish mumkin. Zotan, jamoat transportining tartibsiz harakati tirbandliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblansada, ammo jamoat transportining tartibli harakatini tashkil etish orqali ushbu muammoni bartaraf etish mumkin. Shu bilan birga yo'llarda harakatlanayotgan shaxsiy avtomobillarni ham biroz kamaytirish mumkin. Chunki aholining jamoat transportiga ishonchi bo'ladigan bo'lsa, hech ikkilanmasdan kundalik ishlarini bajarish mobaynida bir joydan ikkinchi joyga borish uchun jamoat transporti xizmatidan foydalanadi. Bu esa o'z navbatida yo'llarda tirbandlik va yo'l transport hodisalarini sodir bo'lish ehtimolini kamaytiradi. Ma'lumki, yo'llarda tirbandlik kunning tig'is vaqtlariga to'g'ri keladi. Bu vaqtlar ertalab soat 7:30 dan 09:30 gacha, tushda soat 12:00 dan 14:00 gacha va tushdan keyin esa soat 17:30 dan 19:30 gacha. Hozirgi kunda jamoat transportining yuqori sifatli xizmat ko'rsata olmayotganligi sababli yo'llarda shaxsiy avtomobillar harakati bir muncha ko'p. Bundan tashqari, shaharlarda jamoat transporti xizmati bilan ta'minlanmagan hududlar mavjud. Ushbu hududlarni ham jamoat transporti yo'nalishlariga qo'shish mazkur sohaning har jihatdan yanada qulay bo'lishiga xizmat qiladi.

Avtomobil boshqarishga salbiy ta'sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. Bulardan biri charchoqdir. Tabiiyki, charchoq holatida insonlarning avtomobil boshqarish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Agar bu holatda avtomobil vositasi boshqarilsa, yo'llarda yo'l harakati qoidalarining qasddan buzilishi, tirbandliklar yuzaga kelishi va eng achinarlisi esa noxush yo'l transport hodisalari yuz berish ehtimolligi keskin ortadi. Ishdan yoki o'qishdan charchab chiqqan holatda avtomobil boshqarish hamma ham birdek yoqavermaydi. Bunday holatlarda sifatli va


tezkor jamoat transporti xizmati qo‘l keladi. Chunki jamoat transportining asosiy maqsadi yo‘lovchilarni o‘z manzillariga xavfsiz va tez yetkazishdir.

Jamoat transporti qamrov kengligini oshirish uchun yangi joriy etilishi ko‘zda tutilayotgan yo‘nalishda jamoat transportiga bo‘lgan talab yetarlicha bo‘lishi kerak. Odatda, talab darajasi shu hudda joylashgan diqqatga sazavor joylar(davlat tashkilotlari, ko‘ngilochar maskanlar, yirik savdo markazlari)ga qarab aniqlanadi. Bundan tashqari, aholining jamoat transportiga bo‘lgan ehtiyojlarini so‘rovnoma yoki anketa to‘ldirish orqali ham aniqlash mumkin.

**TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI** Mazkur tadqiqod ishini amalga oshirish uchun Termiz shahrida amalda mavjud bo‘lgan avtobus yo‘nalishlari o‘rganib chiqildi. Viloyat Transport boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda Termiz shahrida jami 11 ta ichki yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy uzunligi 172.5 km ni tashkil etadi. Avtoshoxbekatlar soni 2 ta. Ayni paytda mavjud bekatlar soni 98 tani ko‘rsatmoqda. Avtobuslarga keladigan bo‘lsak, Isuzu rusumli 164 ta avtobus uzluksiz harakatda. Avtobuslar orasidagi harakat vaqti intervali 8-10 daqiqa hamda yo‘nalish boshidan oxirgi bekatgacha bo‘lgan vaqt 35-40 daqiqani o‘z ichiga oladi. Xizmat davomiyligi esa 7:00 dan 18:00 gacha[3].

Bundan tashqari, tumanlar va shaharlararo yo‘nalishlar ham mavjud bo‘lib, ularning jami soni 8 tani tashkil etadi. Ushbu yo‘nalishlarda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatayotgan avtobuslarning umumiy soni esa 40 ta. Mazkur avtobuslarning barchasi transport uyushmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilib, aholiga litsenziyalangan xizmatlar ko‘rsatib kelmoqda.

Jamoat transportining aholiga ko‘rsatayotgan xizmatlarini sarhisob qiladigan bo‘lsak, 2023-yil holatiga ko‘ra bir kunda o‘rtacha 68 ming nafar yo‘lovchi, bir oyda 2.1 mln, bir yilda esa 24.3 mln yo‘lovchi jamoat transportidan foydalangan. Bu ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash uchun jamoat transporti harakat vaqtini va qamrov kengligini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi(1-rasm).



**1-rasm. Jamoat transportidan foydalangan yo‘lovchilar soni**


Jamoat transporti xizmatini yanada yaxshilash borasida Viloyat Transport boshqarmasi boshchiligida yuqoridagi qaror ijrosini ta‘minlash borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Termiz shahar jamoat transporti ichki yo‘nalishlarining brutto shartnomasiga o‘tkazilishi munosabati bilan elektron tender tanlovlariga chiqarish yuzasidan takliflar ko‘rib chiqilmoqda. Bundan tashqari, Termiz muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchilari mazkur sohani yanada rivojlantirish yo‘lida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda(1-jadval).

**1-jadval.**

T/r	Yo‘nalish №	Yo‘nalish nomi	Masofasi km	Reja bo‘yicha avttransport soni	Avtotransport rusumi
1	1	“Aeroport - Shimoliy avtoshoxbekat” (Namuna, Yubleniy, TerDu orqali)	17.7	14	Isuzu
2	2	“Termiz avtoshoxbekat - Shimoliy avtoshoxbekat”	15.3	10	Isuzu
3	3	“Istiqlol maydoni – Aeroport”(Tibbiyot akademiyasi, TerDu, Yangi bozor va Manguzar orqali”	14.1	10	Isuzu
4	4	“Istiqlol maydoni - Shimoliy avtoshoxbekati orqali Istiqlol maydoni”	22.4	24	Isuzu
5	5	“Termiz Istiqlol maydoni - Shimoliy avtoshoxbekat orqali Istiqlol maydoni”	13.3	16	Isuzu
6	6	“Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi – Termiz Shimoliy avtoshoxbekat”	17.4	14	Isuzu
7	7	“Termiz avtoshoxbekati – Istiqlol maydoni”	13.6	18	Isuzu
8	8	“Termiz avtoshoxbekati – Istiqlol maydoni”	11.9	14	Isuzu
9	13	“Termiz harbiylar maydoni – Daryo porti orqali Shimoliy avtoshoxbekat”	20	10	Isuzu
10	15	“Termiz avtoshoxbekat - Shimoliy avtoshoxbekat”	11	14	Isuzu
11	17	“Termiz MFY – Daryo porti”(Zif tekistil, Temir yo‘l vogzali, Yubleniy, Tibbiyot akademiyasi, Istiqlol maydoni)	15.8	20	Isuzu
<b>JAMI: 11 ta</b>			<b>172.5</b>	<b>164</b>	

1-jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, shahardagi harakat yo‘nalishi eng katta masofaga ega bo‘lgan 4-yo‘nalish ya‘ni “Istiqlol maydoni - Shimoliy avtoshoxbekati orqali Istiqlol maydoni” hisoblanadi. Eng qisqa masofa esa 15-yo‘nalish ya‘ni “Termiz avtoshoxbekat - Shimoliy avtoshoxbekat”ga tegishli. Ushbu yo‘nalish oldingi tadqiqot ishlarida keng o‘rganilgan edi[4].

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida yo‘lovchilar orasida so‘rovnomalar o‘tkazilganda, yo‘lovchilarning aksariyat qismi avtobus bekatlarining holati hamda avtobusda yo‘lovchilar uchun yaratilgan sharoitlar qoniqlarli darajada emas deb izoh bildirishdi. Bundan tashqari, avtobuslarning harakat tezligi sezilarli darajada pastligi, yo‘lovchilarning ushbu sohaga bo‘lgan ishonchi yuqori darajada emasligini ko‘rsatdi. Chunki yo‘lovchilar o‘z manzillariga belgilangan vaqtda yetib borishda biroz qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, ba‘zi hududlarda yangi yo‘nalishlar tashkil etish kerakligi haqida takidlab o‘tishdi(2-rasm).



## **2-rasm. Termiz shahar jamoat transporti yo‘nalishining umumiy ko‘rinishi**

Jamoat transporti qamrovini kengaytirish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida 2024-yilning 16-yanvarida yangi 6-yo‘nalish viloyat Transport boshqarmasi tomonidan tasdiqlanib, o‘z xizmat faoliyatini boshladi.

Ushbu yo‘nalishning tashkil qilinishidan asosiy maqsadlar, “Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi-Termiz Shimoliy avtoshoxbekat” oralig‘idagi yo‘lovchilarni jamoat transporti xizmati bilan ta‘minlash va ularni o‘z manzillariga xavfsiz va tez yetkazishdir. Shuningdek, mazkur yo‘nalish ziyorat turizimini rivojlantirish uchun ham bevosita xizmat qiladi. Yo‘nalishga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, boshlang‘ich bekat Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohidan boshlanib, temir yo‘l vokzali orqali harakatlanib, Navbahor ko‘chasi bilan so‘ngi bekat Termiz Shimoliy avtoshoxbekatiga yetib boradi.

Bu yo‘nalish orqali shahrimizga boshqa tuman va viloyatlardan hamda xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar ziyoratgohlarni, tarixiy obidalarni va shahardagi boshqa diqqatga sazovor joylarni ko‘rish uchun ajoyib imkoniyatga ega bo‘lishadi. Ma‘lumki, shahar infratuzilmasini o‘rganish uchun jamoat transportidan qulayroq boshqa transport vositasi yuq.

**XULOSA** Jamoat transporti har qanday rivojlangan davlatning ham asosiy bir qismi hisoblanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu sohaning rivojlanishi nafaqat bugunning, balki uzoq kelajakning ham asosiy masalalaridan biri bo‘lib keladi. Shuningdek, shahar hududini

jamoat transporti bilan keng qamrab olish, yo'lovchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish bilan bir qatorda ularni o'z manzillariga xavfsiz yetkazish jamoat transportining eng asosiy maqsadlaridan biri sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi PQ-59-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Abduraximovich Q. S., Urazovich C. B., Djurayevna S. N. TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO'LGAN AVTOBUS BEKATLARINING TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 13-18.
4. Sheraliyevich P. B., Urazovich C. B. Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo'llari (Termiz Shahar 15-Yo'nalishli Avtobus Misolida) //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 35-38.
5. Sheraliyevich P. B., Chori o'g'li X. A. HAYDOVCHILAR, YO'LOVCHILAR VA PIYODALARNING YO'LLARDA YURISH MA'DANIYATI //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 30-34.
6. Amonovich U. I., Kuziyev A. U., Shamsutdin o'g'li M. A. YO'LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQUV //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 24. – №. 2. – C. 109-113.